

ANVAR POSHO FAOLIYATINING BUXORO AMIRLIGI SIYOSIY KONTEKSTIDAGI O'RNI: TARIXIY-SIYOSIY TAHLIL

Saidmamatov Saidolim Akbar o'g'li

Xalqaro munosabatlar yo'nalishi 2-kurs talabasi

Turdiyev Madiyor Mamanazarovich

Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi



Annotatsiya: Ushbu maqolada Anvar Posho faoliyatining Turkiston va xususan, Buxoro amirligi siyosiy kontekstidagi o'rni tahlil qilinadi. Maqola Anvar Posho shaxsining tarixiy va siyosiy qiyofasini ochib beradi, uning mustamlakachilikka qarshi kurashi, xalqaro va ichki siyosatdagi pozitsiyasi, harbiy strategiyasi, mahalliy harakatlar bilan aloqasi va halokatining mintaqadagi mustaqillik harakatiga ta'siri baholanadi. Harakat doirasidagi diplomatik urinishlar, ichki qarama-qarshiliklar va Sovet siyosatining reaksiysi ham o'r ganiladi.

Kalit so'zlar: Anvar Posho, Turkiston, Buxoro amirligi, Sovet Rossiya, Qizil Armiya, mustaqillik harakati, diplomatiya, basmachilik, jadidlar, tarixiy tahlil.

Annotation: This article analyzes the role of Enver Pasha's activities within the political context of Turkestan, particularly the Emirate of Bukhara. It reveals the historical and political profile of Enver Pasha, assessing his struggle against colonialism, his stance in both international and domestic politics, his military strategy, his relations with local movements, and the impact of his demise on the regional independence movement. The article also examines the diplomatic efforts within the movement, internal conflicts, and the Soviet response to his actions.

Keywords: Enver Pasha, Turkestan, Emirate of Bukhara, Soviet Russia, Red Army, independence movement, diplomacy, Basmachi movement, Jadids, historical analysis.

Аннотация: В данной статье анализируется роль деятельности Энвера Паши в политическом контексте Туркестана, в частности, Бухарского эмирата. Статья раскрывает исторический и политический облик Энвера Паши, оцениваются его борьба против колониализма, позиция во внешней и внутренней политике, военная стратегия, связи с местными движениями, а также влияние его гибели на движение за независимость в регионе. Также рассматриваются дипломатические усилия в рамках движения, внутренние противоречия и реакция советской политики.

Ключевые слова: Энвер Паши, Туркестан, Бухарский эмирят, Советская Россия, Красная Армия, движение за независимость, дипломатия, басмаческое движение, джадиды, исторический анализ.

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS



Kirish:

XX asr boshlarida dunyo siyosiy xaritasi tubdan o‘zgarishga yuz tutdi. Yevropadagi imperiyalar tanazzulga uchradi, Osiyoda esa mustamlakachilik kuchayib bordi. Usmonli imperiyasining qulash jarayoni, Rossiya inqilobi va Sovet hokimiyatining paydo bo‘lishi mintaqadagi siyosiy muvozanatni izdan chiqardi.[1] Ayniqsa, O‘rta Osiyo hududi, jumladan Buxoro amirligi o‘z tarixidagi eng murakkab davrni boshdan kechira boshladi.

Bu davrda ko‘plab siyosiy kuchlar, jumladan jadidlar, panislomistlar va milliy mustaqillik tarafдорлari paydo bo‘ldi. Shu tarixiy fonda Anvar Posho nomi Turkiston xalqlari orasida katta qiziqish uyg‘otdi. U Turkiya harbiy-siyosiy elitasi vakili bo‘lib, o‘z faoliyatining so‘nggi yillarini Sovet bosqiniga qarshi kurashga bag‘ishladi. Anvar Posho o‘zining siyosiy va harbiy faoliyati orqali Turkistonda mustaqillik harakatini jonlantirishga intildi.

Ushbu maqola aynan Anvar Posho faoliyatining Buxoro amirligi kontekstidagi ahamiyatini yoritishga, uning Turkistonga kelish sabablari, amalga oshirgan harakatlari, ichki va tashqi omillar bilan aloqasini tahlil qilishga qaratilgan. Maqolada tarixiy faktlar asosida tahliliy yondashuv qo‘llaniladi.

2. Anvar Posho: tarjimai hol, siyosiy shakllanish va strategik qarashlar

Anvar Posho (Enver Paşa) 1881-yil 22-noyabrda Usmonli imperiyasi poytaxti Istanbulda tug‘ilgan. Uning otasi kichik mulozim, onasi esa ma’rifatli xonim bo‘lgan. Anvar yoshlik chog‘idanoq harbiy xizmatga mehr qo‘yan va Usmonli Harbiy akademiyasida tahsil olgan. Keyinchalik u Germaniyada tahsilni davom ettirib, Yevropa harbiy texnologiyalari va siyosiy tamoyillarini o‘rgangan.[2],[5] 1909–1911-yillarda Berlinda harbiy attashe lavozimida ishlagan. Bu tajriba uning xalqaro qarashlarini shakllantirdi va keyinchalik uning tashqi siyosiy qarorlarida aks etadi.

Anvar Posho 1908-yildagi Yosh turklar inqilobida faol qatnashib, sulton Abdulhamid II ni taxtdan ag‘darishga hissa qo‘shgan. 1913-yilda davlat to‘ntarishi natijasida Usmonli imperiyasining harbiy vaziri bo‘lib tayinlanadi. Bu lavozim unga Birinchi jahon urushida katta harbiy vakolatlar berdi. U Germaniya bilan harbiy ittifoq tuzdi va Usmonli qo‘sishinlariga qo‘mondonlik qildi. Aynan shu urush jarayonida u Kavkaz, Gallipoli, Iroq va Suriya frontlarida ishtirok etdi. Urushning yakunida esa Usmonli imperiyasi mag‘lubiyatga uchraydi va Anvar Posho siyosiy sahnadan chiqadi.

Biroq u siyosiy maydonni tark etmagan. 1918-yildan so‘ng u Germaniyada yashirin harakatlar olib boradi. Sovet Rossiyasi bilan muzokalar ar orqali u Turkistonga borishga ruxsat oladi. Bu yerda u Sovetlarga qarshi kurash olib borayotgan mahalliy basmачilarga rahbarlik qilish niyatida bo‘ladi.

Anvar Posho o‘zini muslimon xalqlari birligini orzu qilgan, panislomizm va panturkizm mafkuralarini quvvatlagan lider sifatida namoyon qiladi.[8],[9] Uning strategiyasi diniy birlik, milliy uyg‘onish va harbiy intizom asosida edi. Shuningdek, u zamонави diplomatiya va harbiy taktikani birlashtira olgan noyob shaxslardan biri bo‘lgan.



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS



3.Turkistonga kelish sabablari va tarixiy-siyosiy kontekst

Anvar Posho Turkistonga 1921-yilning oxirlarida keldi. Uning bu qaroriga bir necha sabablar turtki bo‘lgan. Birinchidan, u Germaniyada surgunda yurgan paytda Sovet Rossiysi bilan aloqalarni o‘rnatgan.[3],[4] Sovetlar uni “Sharqdagi inqilobiy kuch” sifatida ko‘rib, o‘z manfaatlari yo‘lida undan foydalanmoqchi bo‘lgan. Ikkinchidan, Anvar Poshoning o‘zi ham musulmon xalqlarning ozodligi, xususan, Turkiston musulmonlarining Sovet istilosidan qutulishi uchun harakat qilish niyatida bo‘lgan. Uchinchidan, u mustamlakachilikka qarshi kurashayotgan mahalliy harakatlarga (boshqacha aytganda, basmachilikka) rahbarlik qilish orqali siyosiy obro‘sini tiklamoqchi bo‘lgan.

Turkistondagi siyosiy sharoit o‘ta murakkab edi. 1920-yil Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzilgan bo‘lsa-da, mintaqada Sovet hokimiyatiga qarshi keng ko‘lamli qarshilik kuchayib borayotgan edi. Aholining katta qismi sovetlarni bosqinchi sifatida ko‘rar, islom dini va milliy qadriyatlarning kmsitilishi xalq noroziligini kuchaytirardi. Jadidlar, basmачilar, eski amirlik tarafдорлари va mustaqillik istovchi guruhlar Sovetlarga qarshi turli yo‘nalishlarda harakat qilardi. Ammo ular orasida yagona yetakchining yo‘qligi harakatni zaiflashtirardi.

Anvar Posho aynan mana shu bo‘shliqni to‘ldirishga intildi. U o‘zining turk harbiy tajribasi, siyosiy obro‘si va xalq orasidagi nufuzidan foydalanib, qarshilik harakatlarini yagona markaz ostida birlashtirishni maqsad qilgan. U Sovetlar bilan dastlab “hamkorlik” qilishga rozi bo‘lgan ko‘rinish bergen bo‘lsa-da, asl niyati mustaqil musulmon davlatini barpo etish edi.[8],[12] Bu niyatini u Boku shahrida o‘tkazilgan Sharq xalqlari qurultoyida ochiq aytgan: musulmonlar o‘z ozodligi uchun Sovet imperializmi bilan kurashishi lozim, degan.

Shu tariqa, Anvar Posho mintaqaga harbiy-siyosiy va mafkuraviy lider sifatida kirib keldi. Uning kelishi mahalliy aholi va qo‘rboshilar orasida umid uyg‘otdi. U bilan birga Turkistonga sobiq ofitserlar, yosh millatchilar, hattoki sobiq Usmonli armiyasining ayrim vakillari ham kelgan edi. Anvar Posho o‘zining “Ittihodiyilar” deb nomlangan yangi siyosiy tashkilotini yaratishga kirishadi va mahalliy harakatlar bilan aloqalarni mustahkamlaydi.

Uning kelishi bilan bosmachilik harakati tashkilotli, tartibli va mafkuraviy asosga ega bo‘la boshladi. Bu esa Sovetlarga qarshi qarshilikning yangi bosqichga o‘tganidan darak edi.

4. Buxorodagi faoliyati: harbiy harakatlar va siyosiy pozitsiya

Anvar Posho 1922-yil boshlarida Buxoro amirligi hududida faoliyat boshladi. U dastlab mahalliy basmачilar bilan uchrashib, umumiy rahbarlik ostida harakat qilish g‘oyasini ilgari surdi. Buxoro, Termiz, Baljuvon va Darvoz hududlarida Sovetlarga qarshi kurash olib borayotgan guruhlar bilan ittifoq tuzishga urindi. Bu jarayonlarda Anvar Posho diplomatik yondashuvni qo‘llagan bo‘lsa-da, ayrim hollarda harbiy kuch bilan siyosiy obro‘ orttirishga ham harakat qilgan.



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

1922-yil 22-yanvar kuni Anvar Posho o‘zining 1500 kishilik qo‘shini bilan 8000 nafar Sovet armiyasiga qarshi kurash olib bordi. Bu jang tarixda eng muvaffaqiyatlari bosmachilar qarshiliklaridan biri sifatida qayd etilgan. Ushbu g‘alaba natijasida Anvar Posho mintaqadagi harbiy va siyosiy kuchlar e’tiborini qozondi. Bu jangdan so‘ng mahalliy rahbarlar, jumladan Amir Olimxon ham uni e’tirof etdi. 28-mart kuni Anvar Posho Buxoro mudofaasi bosh qo‘mondoni etib tayinlandi. 15-aprelda esa siyosiy rahbar sifatida tan olindi.

Anvar Posho o‘z harakatini xalqaro darajada ham mustahkamlashga urindi. Afg‘oniston amiri Omonullaxon bilan aloqlar o‘rnatildi.[2],[6] Natijada afg‘on hukumati unga yordam tariqasida 300 nafar qurolli askar va o‘nlab qop qurol-yarog‘ yubordi. Bu yordam qisqa muddat ichida bo‘lsa-da, Anvar Posho harakatiga ruhiy va siyosiy kuch bag‘ishladi.

Uning boshqaruv uslubi qat’iyatli va markazlashgan edi. U harbiy intizomga alohida e’tibor qaratdi. Mahalliy qo‘rboshilarni yagona harakat ostida birlashtirishga harakat qildi. Har bir jangda strategik fikrlash, oldindan razvedka va atrofdagi aholi bilan ish olib borish muhim hisoblandi. Shu orqali u Sovetlar bilan kurashishda vaqtincha bo‘lsa-da, ustunlikka erishdi.

Biroq har qanday harakatda bo‘lgani kabi, Anvar Posho yetakchiligidagi qarshilik ham muammolardan xoli emas edi. Uning qat’iy boshqaruvi ba’zi mahalliy yetakchilarga yoqmas edi. Ayrim guruuhlar mustaqil harakat qilishni afzal ko‘rar, natijada ichki bo‘linishlar kuchayardi. Shu sababli, Anvar Posho ko‘p vaqtini faqat Sovetlarga qarshi kurash bilan emas, balki ichki nizolarni bartaraf etishga ham sarfladi.

Shu bo‘lsa-da, Buxorodagi qisqa faoliyati davomida Anvar Posho mintaqadagi eng kuchli va umidli yetakchilardan biriga aylandi. U bosmachilik harakatini milliy ozodlik kurashiga aylantirishga harakat qildi. Uning harakatlari mintaqaviy doirada sovetlashtirish siyosatiga kuchli qarshilik ko‘rsatgan eng jiddiy bosqichlardan biri hisoblanadi.

5. Ichki nizolar va Sovet strategiyasining muvaffaqiyati

Anvar Posho yetakchiligidagi harakat dastlab katta umid bilan boshlangan bo‘lsa-da, tez orada ichki ziddiyatlar va Sovetlar tomonidan yuritilgan murakkab siyosat bu harakatni zaiflashtira boshladi. Harakat ichida bir nechta mustaqil guruuhlar mavjud bo‘lib, ularning har biri o‘z qarashiga ega edi. Anvar Posho bu guruhlarni birlashtirishga harakat qilgan bo‘lsa-da, ba’zi rahbarlar — xususan, Ibrohimbek — uning boshqaruvini tan olmadidi.

Ibrohimbek o‘zining 10 000 kishilik kuchli qo‘shini bilan Anvar Posho buyruqlarini bajarmaslikka qaror qildi. U Anvar Posholi “tashqaridan kelgan”, ya’ni mahalliy mintaqaviy manfaatlarni yetarlicha bilmaydigan yetakchi sifatida ko‘rgan. Bu nizo butun harakatning ichki birdamligini yo‘qqa chiqardi. Oqibatda, harbiy kuchlar bo‘linib ketdi, aloqa va koordinatsiya zaiflashdi,[4],[7] umumiy strategiya yo‘qolgan holga keldi. Sovetlar aynan shu ichki bo‘linishdan mohirona foydalandi.

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Sovet strategiyasi faqat qurolli kurash bilan cheklanmagan. Ular mafkuraviy va siyosiy tashviqotga alohida e'tibor qaratgan.[9],[12] Jumladan: "Tavba qilgan bosmachilarni afv etish" kabi shiorlar orqali ba'zi qo'rбoshilarni o'z tomonlariga og'dirishdi.

Mahalliy aholiga "Sovetlar dindorlarni qo'llaydi" degan yolg'on targ'ibotlar olib borishdi.

Mahalliy sovet tashkilotlariga musulmon nomzodlarni qo'shish orqali ichki ishonchni tiklashga urinishdi.

Qo'rбoshilar orasida ig've, pora, yolg'on xat va josuslik tizimlarini ishlab chiqdilar.

Bu strategik siyosat samara berdi. Ko'plab qo'rбoshilar, jumladan, ilgari Anvar Posho bilan harakat qilgan ayrim shaxslar Sovetlar bilan yashirin muzokaralarga kirishdi. Ba'zilar o'z jangchilariga "Anvar Posho jinnilik bilan bu kurashni davom ettiryapti" deya tashviqot o'tkaza boshladi. Bu esa Anvar Posho harakatining ichidan yemirilishiga olib keldi.

Shuningdek, iqtisodiy ta'minot muammolari ham harakatni zaiflashtirgan muhim omillardan biri bo'ldi. Sovetlar mintaqadagi savdo yo'llarini nazorat qilib, quroq, oziq-ovqat va dori-darmonlar oqimini to'sdi. Aholi orasida yetishmovchilik kuchaydi. Bu esa Anvar Posho safida bo'lganlar sonining qisqarishiga olib keldi.

Yuqorida omillar sabab, Anvar Posho endilikda Sovetlar bilan kurashda faqat jasorat va iymon bilan emas, balki murakkab siyosiy manipulyatsiyalarga qarshi ham kurashishga majbur bo'ldi. Bu esa uning harakatini bosqichma-bosqich zaiflashtirdi va yakuniy inqiroz sari olib bordi.

6.Diplomatik urinishlar va Sovetlarga qarshi siyosiy pozitsiya

Anvar Posho faoliyatida faqat qurolli kurash emas, balki diplomatik yondashuvlar ham muhim o'rin egallagan. U Sovet hokimiyyati bilan bevosita sulh tuzishga bir necha bor uringan,[3],[5] biroq har doim o'zining asosiy prinsipidan — Turkistonni Sovet qo'shinlaridan tozalash talabidan voz kechmagan. Bu prinsipial pozitsiya uni diplomatik maydonda qat'iyatli va murosasiz lider sifatida ko'rsatdi.

1922-yil bahorida Anvar Posho Sovet rahbariyatiga yozma maktub yo'llaydi. Unda u Qizil Armiya askarlari Turkistonni tark etmaguncha, hech qanday muzokara bo'lmasligini bildiradi. Maktubda quyidagi so'zlar bor edi:

"Sizlardan bizning ona diyormizdan chiqib ketishingizni so'raymiz. Biz qon to'kilishini istamaymiz. Lekin kerak bo'lsa, oxirgi nafasimizgacha jang qilamiz. Bu biz uchun faxr va sha'n masalasidir."

Sovetlar bu murojaatga javoban 1922-yil 19-aprelda rasmiy taklif bilan chiqadi: ular Anvar Posho va uning safdoshlari bilan muzokaralarga tayyor ekanliklarini bildiradilar. Hatto ba'zi manbalarga ko'ra, Sovetlar Darvoz, Ko'lob, Qorategin va Dushanbe hududlarini o'z ichiga olgan muxtor musulmon viloyatini tuzish taklifini bildirgan. Bu, garchi siyosiy taktika bo'lsa-da, Sovetlar Anvar Posho harakatining jiddiyligini tan olganini ko'rsatadi.

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Biroq Anvar Posho bu taklifni qat'iyan rad etadi. Uning pozitsiyasi aniq edi: "agar rus askarlari chiqib ketmasa, bu mustaqillik emas, shunchaki boshqa shakldagi qo‘g‘irchoq hukumat bo‘ladi." Bu yondashuv qisqa muddatda kurashni murakkablashtirgan bo‘lsa-da, tarixda Anvar Poshonin prinsipial siyosiy arbob sifatida namoyon qiladi.

Bundan tashqari, Anvar Posho Afg‘oniston, Eron va Hindistondagi musulmon harakatlari bilan ham aloqalar o‘rnatishga uringan.[8],[9] Afg‘on amiri Omonullaxon bilan kelishuvlardan tashqari, u hind musulmonlariga murojaat qilgan, ularni inglizlar va ruslarga qarshi birlashishga chaqirgan. Bu xalqaro diplomatik harakatlar unga musulmon ummati ichida kengroq e’tibor va hurmat olib kelgan.

Afsuski, Anvar Posho bu diplomatik urinishlar orqali Sovetlarga bosim o‘tkaza olmadi. Sovetlar vaqt yutish maqsadida muzokara yuritib, aslida harbiy tayyorgarlikni kuchaytirib bordilar. Diplomatik urinishlar to‘xtaganidan so‘ng, Sovetlar harbiy harakatni kuchaytirishga qaror qildilar.

7. Halokati va tarixiy merosi

Anvar Posho harbiy va siyosiy kurashni oxiriga yetkazishga qat’iy qaror qilgan edi. U barcha tahdidlar, ichki ziddiyatlar va tashqi bosimlarga qaramasdan kurashni davom ettirdi. Biroq 1922-yilning yoziga kelib, Sovetlar strategik jihatdan Anvar Posho harakatini zaiflashtirishga erishgan edilar. Uning safdoshlari orasidagi ziddiyatlar chuqurlashdi, moliyaviy va harbiy resurslar esa kamaydi.

Avgust oyida Baljuvon tepaliklari yaqinida Anvar Posho o‘z kuchlari bilan Qizil Armiya tomonidan o‘rab olindi. U o‘z safiga yaqin 30–40 nafar sadoqatli jangchini olib, mudofaani davom ettirdi. Chekinish imkonni bo‘lsa-da, u jangni tanladi. Bu uning qat’iy xarakterini va shaxsiy jasoratini yaqqol namoyon qilgan holatdir.

So‘nggi jangda Anvar Posho shaxsan 11 nafar Sovet jangchisini yo‘q qiladi. Ammo orqadan qilich zarbasi oladi va halok bo‘ladi.[2],[5] Tarixchilarining fikricha, bu xoin zarbani bergen kishi — bir paytlar Anvar Poshonin yaqin kishilaridan biri bo‘lgan, Sovet tarafga o‘tib ketgan Georgiy Kasparyan bo‘lgan. Bu voqealarning safdoshlari orasidagi ishonchini ham yaqqol ko‘rsatadi.

Anvar Posho jasadi Baljuvon yaqinidagi Chetan qishlog‘ida dafn etildi. Uning o‘limi bosmachilik harakatining eng og‘ir zarbasi bo‘ldi. Uning vafotidan keyin yetakchilikka da‘vogarlik qiluvchi shaxslar ko‘p bo‘ldi, ammo birortasi Anvar Posho darajasida harbiy, siyosiy va mafkuraviy yetakchilikni amalga oshira olmadi. Bu esa harakatning parchalanishiga va Sovetlar tomonidan birin-ketin bostirilishiga olib keldi.

1924-yilga kelib, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi ham tugatildi. Uning hududlari O‘zbekiston SSR va Turkmaniston SSR tarkibiga kiritildi. Shu tariqa, Anvar Posho orzu qilgan mustaqil musulmon davlati g‘oyasi vaqtincha barham topdi.

Ammo Anvar Posho merosi tarixda yo‘q bo‘lib ketmadi. Uning ismi mustamlakachilikka qarshi kurash ramzi, turkiy islomiy uyg‘onishning timsoli sifatida qolmoqda. U haqida Turkiyada, O‘zbekistonda, Afg‘onistonda, hatto Hindistonda ham

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

tarixiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Uning jasorati, xalqparvarligi va qat’iyati bugungi kunda ham yoshlар uchun ibrat manbaidir.

Xulosa:

Anvar Posho faoliyatiga zamonaviy tarixiy yondashuv. Anvar Posho XX asr boshlarida musulmon dunyosida yetishib chiqqan eng faol, qat’iyatli va murakkab siyosiy arboblardan biri edi. U o’z hayoti davomida bir nechta imperiyalar bilan muloqot qilgan, siyosiy to’ntarishlarda ishtirok etgan, harbiy maydonlarda o’zini namoyon qilgan va yakunda, mustaqillik yo’lida jonini fido qilgan shaxs bo’ldi. Turkiston mintaqasiga kelib, u faqat harbiy yetakchi emas, balki mafkuraviy, siyosiy va ma’naviy lider sifatida namoyon bo’ldi.

Uning faoliyati o’z davrida turlicha baholangan: Sovet propagandasini “bosmachi yetakchisi”, “reaksioner” sifatida ko’rsatgan bo’lsa, milliy ozodlik tarafdarlari uni “xalq qahramoni”, “turkiy uyg’onish timsoli” deb atagan. Bugungi tarixshunoslik esa ushbu ikki yondashuvdan voz kechib, Anvar Posho faoliyatini ob’ektiv, tahliliy yondashuv asosida ko’rib chiqishga harakat qilmoqda.

Anvar Posho Turkiston mustaqilligi uchun olib borgan kurashi bilan milliy tarixda chuqur iz qoldirdi. U basmachilik harakatini umumturkiy darajaga olib chiqishga harakat qildi.[11] Uning diplomatik qadamlaridan tortib, harbiy strategiyalarigacha — barchasi xalq ozodligi uchun qaratilgan edi. U milliy birlik, ijtimoiy adolat va diniy qadriyatlarni siyosiy kurash asosiga aylantirdi.

Bugungi kunda uning faoliyatidan bir necha muhim saboqlar chiqarish mumkin:

Birinchidan, mustaqillik faqat tashqi dushmanga qarshi emas, balki ichki birlik orqali ham ta’milanadi. Anvar Posho harakatidagi ichki bo’linishlar uning orzulariga to’liq erishishga to’sqinlik qildi.

Ikkinchidan, qat’iyat, siyosiy prinsipiallik va xalq manfaatini birinchi o’ringa qo’yish har qanday liderning eng muhim fazilatidir.

Uchinchidan, tarixni bir tomonlama baholash emas, balki chuqur tahlil qilish orqali biz o’z milliy qahramonlarimiz merosini to’g’ri anglaymiz.

Anvar Posho faoliyatini faqatgina muvaffaqiyat yoki mag’lubiyat doirasida baholash to’g’ri emas. Uning hayoti — kurash, sadoqat, qat’iyat va vatanparvarlik timsoli bo’lib qoladi.[7] Shu jihatdan qaraganda, u o’z maqsadiga erishmagan bo’lsa-da, milliy uyg’onish tarixida o’chmas iz qoldirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O’zbekiston tarixi. Toshkent: NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI.
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Anvar_Posho
3. <https://kh-davron.uz/kutubxonasi/uzbek/memuarlar/anvar-poshshoning-vasiyati.html>
4. To’xtasinov, S. (2020). Turkiston istiqlolchilari. Toshkent: Ma’naviyat.
5. Jalilov, M. (2019). Anvar Posho: tarixiy siymo. Samarqand: Ilm ziyo.

**MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS**



6. Qosimov, B. (2021). Buxoro va jadidlar. Toshkent: Fan.
7. Karimov, I. (1998). Tarixiy xotira. Toshkent: O'zbekiston.
8. Pistor-Hatam, A. (2008). Pan-Islam in Practice: The Experiences of Anwar Pasha in Central Asia. Cambridge Middle Eastern Studies.
(Anvar Posho faoliyatining Markaziy Osiyodagi amaliy panislomistik strategiyasi haqida ilmiy tahlil)
9. Adeeb Khalid. (2007). Islam after Communism: Religion and Politics in Central Asia. University of California Press.
(Sovet davridan keyingi islom va siyosiy ongning tarixiy ildizlari haqida, Anvar Posho faoliyati kontekstida tahlillar mavjud)
10. Bregel, Y. (2003). An Historical Atlas of Central Asia. Brill Academic Publishers.
(Markaziy Osiyo tarixining xarita va kontekst asosidagi tahlillari, Buxoro va Turkiston harakatlari haqida)
11. Ziya Gökalp. (1918). Türkçülüğün Esasları. İstanbul: Devlet Matbaası.
(Pan-turkizm mafkuraviy assolarini tushunish uchun muhim manba — Anvar Posho mafkurasi bilan bevosita bog'liq)
12. Usmonxo'jayev, S. (2021). Buxoro mustaqillik harakatlari tarixida Anvar Posho. Toshkent: Fan.
(O'zbek olimi tomonidan yozilgan tarixiy izlanishlar asosida tayyorlangan milliy kontekstdagi tadqiqot)

